

XIX ASR OXIRI –XX ASR BOSHLARIDA SAMARQANDDA SOVDO-SOTIQNING FOTO LAVHALARDA AKS ETTIRILISHI

Muzaffar Hakimov (SamDU magistranti)

Ushbu maqolada Samarqand qadimgi davrlardan bugungi kungacha dunyoning ilm-fan madaniyat va savdo markazlaridan biri bo'lib kelganligi, Samarqandda hunarmandchilikning ahvoli va turlarini bilishda hamda o'sha davr ruhini his etishda foto materiallardan foydalanish muhim ahamiyati va hozirgi kundagi natijalari xususida ma'lumotlar yoritiladi.

Samarqand qadimgi davrlardan bugungi kungacha dunyoning ilm-fan madaniyat va savdo markazlaridan hisoblanib, dunyoning ardoqli shaharlaridan biri bo'lib kelgan.

XIX asrning birinchi yarmiga kelib, Buxoro amirligi ijtimoiy-siyosiy hayotidagi inqirozlarga qaramay, jamiyat iqtisodiy hayotida birmuncha jonlanish ro'y berdi. Jumladan, Buxoro amirligi Rossiya, Xitoy, Eron, Afg'oniston va ular orqali Yevropa mamlakatlariga turli mahsulotlar chiqarib, savdo munosabatlari rivojlana boshladi. Bu vaqtda ichki savdo bilan birga, o'troq aholi bilan ko'chmanchi tumanlardagi aholi o'rtasida mahsulot ayirboshlash birmuncha rivojlandi. Bu esa o'lkada ichki bozorning o'sishiga olib keldi. Samarqand viloyati ham Buxoro amirligining yirik iqtisodiy markazlaridan biri sifatida, xonlikning ichki va tashqi savdosida katta rol o'ynadi. Asta-sekin savdogarlarning ijtimoiy ahvoli va mavqei o'zgara boshladi.

XIX asrning 40-yillarida O'rta Osiyo savdogarlari asosan Rossiya bilan savdo aloqalarini yo'lga qo'ygan. O'rta osiyolik savdogarlar, hatto o'zlari Rossiyaning Nijegorod va Irbit shaharlarida o'tkazilgan yarmarkalarda ishtirok etishgan, Orenburg va Sibir chegaralarigacha borib savdo qilishgan¹.

XIX asrning 50-yillariga kelib, holat tez sur'atlarda o'zgardi. Buxoro amirligining turli hududlarida Suchkov, Bogomazov, Deyev, Morozov, Xludov va boshqalarning firma va birlashmalari faoliyat yurita boshladi. Buxoro amirligi O'rta Osiyoning paxta tozalash va paxtaga ishlov berish sanoat korxonalarining O'rta Osiyodagi markazi hisoblangan. 1841-45 yillarda O'rta Osiyodan Rossiyaga 572 pud paxta yuborilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 1846-50 yillarda 1115 pudga, 1851-55 yillarda 1533 pudga, 1856-60 yillarda 2428 pudga yetdi².

1841-52 yillarda O'rta Osiyodan Rossiyaga 39000 rubllik mahsulot jo'natilgan, 1851-60 yillarda esa bu ko'rsatkich 77000 rublga yetgan³.

Samarqandda paxtadan tashqari, pillachilik ham yaxshi yo'lga qo'yilgan edi.

Jumladan, XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Samarqand bozorida pilla savdosi ham mavjud bo'lib, u asosan shahar bozorlarida amalga oshirilgan.

¹ Рожкова М. К. Экономические связи России со Средней Азией в 40–60 гг XIX века., Изд. АН СССР, 1963, стр.135.

² O'zR MDA 715-jamg'arma, 1-ro'yxat, 18-ish, 12-hujjat, 54-b.

³ Бунаков Е.В. К вопросу о сношениях России со среднеазиатскими ханствами в XIX веке. "Советское востоковедение", т. II, М. – Л., 1941, стр. 163-164.

1867-yili bozorlarda 3000 pud pilla sotilgan. Shaharlarda bo'ladigan har bir bozor kunida 700 tillagacha pilla sotilib, 1 oyda bu ko'rsatkich 5000 tillagacha, qishloq bozorlarida 1000 tillagacha ko'tarilgan. Samarqand bozorlarida 1 pud pilla 11 so'm 50 tiyin¹ turgan. Samarqandda pilla asosan Buxoro yerlariga chiqarilgan, birgina 1872-yili 1609 pud² jo'natilgan. Har bir pillakor bozorda 0,5 puddan 8 pudgacha pilla sotgan. Ba'zi sotuvchilarning pillasi 4 pudga ham yetmagan³.

Doimiy do'konlari borligiga qaramay, baqqol deb atalgan savdogarlar ko'chma savdogarlik yoki mavsumiy savdo bilan shug'ullangan. Masalan, kuz va qishning birinchi yarmida ularning soni ko'payib, keyin kamayib va yana bahorning birinchi yarmiga kelib bozorlarda qisman ko'payib borgan. Bu guruhga, shuningdek (mayizfurushlar), o'z shaxsiy bog'laridagi mevalarni sotadigan mahalliy aholi ham kirgan⁴. Shu bilan birga, muayyan yakka mahsulot sotuvchilar, masalan, chitgar - chitfurush, qurtisharfurush - kiyim-kechaklar sotuvchisi, tupifurush - do'ppi va telpak sotuvchisi, futafurush - sallafurush, qandolatifurush - shirinliklar sotuvchisi kabi nomlarda faoliyat olib borgan.



Samarqandda XIX asr oxirlarida faqat bozor kunlari emas, balki doimiy ishlab turgan do'konlar ham mavjud bo'lgan. Buni quyidagi jadvalda ko'rishimiz mumkin:⁵

Samarqand shahri bo'yicha		Kattaqo'rg'on shahri bo'yicha	
Do'kon nomlari	Soni	Do'kon nomlari	Soni
Oq surp	100	Har xil do'konlar	99
Idish-tovoq	280	Olacha	37
Mis idish va buyumlar	57	Chit	15
Go'sht	130	Paxta	16
Shoyi mato va iplar	15	Egar-jabduq	14
Bo'yoqlar	30	Poyafzal	27
Tuz	24	Mayda poyafzal	2
Salla va belbog'lar	34	Attorlik	5
Ko'ylaklar	37	Gilam	4
Chit matolar	29	Ipak	10

¹ Обзор Самаркандской области за 1900 год // Изд. Самаркандского областного статического комитета. Самарканд, 1901, стр. 33.

² Обзор Самаркандской области за 1900 год // Изд. Самаркандского областного статического комитета. Самарканд, 1901, стр. 34.

³ Kuraxmedov A. XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Samarqandning iqtisodiy va madaniy hayoti. T.: "Fan". 2009, 65-b.

⁴Мансырев С.П. Базарная торговля в Самаркандском уезде // Справочная книжка Самаркандской области на 1898 г. - Самарканд, 1899. Вып. 5. - С. 1281-130.

⁵ O'zR MDA 5-jamg'arma, 1-ro'xat, 12-ish, 105,124-varaqlar.

Egar jabduqlar	29	Bosh kiyim	5
Sovun	50	Temirchilik	6
Albastr va oxak	11	Cho'yan buyumlar	3
Poyafzal (erkak va ayol)	13	Temir buyumlar	12
Ketmonlar	8	Choy	13
Cho'yan buyumlar	15	Moy (yog')	13
Metall arqon va zanjirlar	10	Sartaroshxona	6
Qamchilar	2	Sovun	10
Pichoq va qaychilar	10	Tuz	12
Uy-ro'zg'or buyumlari	5	Chakana	36
Choy	4	Tamaki	11
Vino (sharob)	712	Sopol buyumlar	6
		Sabzavotlar	13
		Meva-chevalar	9
		Pishiriqlar	1

Samarqandda savdo-sotiq har kuni jadal ketmasa-da, do'kondorlar, hunarmandlar o'z mahsulotlarini sotish imkonini yaratish uchun ba'zida narxlarni arzonlashtirishgan.

Shunday qilib, hunarmand bozor munosabatlariga qizg'in kirishib ketdi va o'z navbatida tovar ishlab chiqaruvchiga aylandi. Bu jarayon juda sekinlik bilan kechdi. Bu haqdagi lavhalarni foto-materiallardan ko'rish mumkin. XIX asr oxiri XX asr boshlarida Samarqandda hunarmandchilikning ahvoli va turlarini bilishda hamda o'sha davr ruhini his etishda foto materiallardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Qolaversa, maktablar, kasb-hunar kollejlari va akademik litseylardagi O'zbekiston tarixi fanini qiziqarli va ma'lumotlarga boy tarzda o'tishni ta'minlovchi vositalardan biridir.

Shunday ekan, mustaqil O'zbekistonimizning har bir o'g'il-qizi Vatanimiz tarixini nafaqat bilishi, balki uning har bir davri ruhini chuqur his etmog'i zarur. Shundagina yurtimizdagi barcha sohalar gurkirab rivojlanadi, qalbi teran barkamol avlod shakllanadi.